



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Ozoda Yadgarova Ibragimovna

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

INTERFAOL TA'LIM MODELİ ASOSIDA TALABALARNING PROFESSIONAL-KOMMUNIKATIV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim jarayonida interfaol ta'limni qo'llash samaradorligi va talabalarda professional-kommunikativ malakalarni rivojlantirishda uning imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, interfaol ta'lim, ta'lim berish modellari

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, talabalarning mustaqil bilim olishlari qay darajada to'g'ri tashkil etilayotganligini kuzatish, nazorat qilib borish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, zarur o'rinlarda pedagogik va metodik maslahatlar berish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omildir.

Introfaol (intro – "tashqariga" faol) ta'limda asosan talabalarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. Bunda



ta'lim jarayoni talabalar tomonidan tashkil etiladi, ular bir-birlariga o'z fikr, xulosalarini o'rgatadilar. Bunda o'qituvchi tashkilotchi, boshqaruvchi, ekspert va kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos. U hatto ayrim holatlarda "talaba"ga ham aylanib qolishi mumkin





Interfaol (o'zaro faol) ta'limda o'qituvchi va talabalar o'rtasida, shuningdek, talabalararo o'zaro hamkorlik, hamfikrlik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shu bilan birga, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi [1]. O'qituvchi va talabalarning birgalikdagi hamkorlik harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamijodkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol metodlar turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi. Biroq materialni samarali o'zlashtirish yo'llari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, talabalarning shaxsiy tajribalari ta'limning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Interfaol ta'lim jarayonida talabalarda quyidagi kommunikativ aloqalar kuzatiladi:

- 1) o'qituvchi bilan (ya'ni talaba o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob qaytarayotganda);
- 2) talabalar bilan (juftlik asosida ishlash);
- 3) kichik (3-5 nafar talabadan iborat) guruhlarning a'zolari bilan;
- 4) katta (6-9 nafar talabadan iborat) guruhlarning a'zolari bilan (rolli o'yinlar o'ynash, debat, davra suhbat, mushoira, munozara va boshqalarda ishtirok etish);
- 5) talabalar jamoalari bilan (kichik ilmiy izlanishlarni olib borish, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish jarayonida);
- 6) taklif qilingan shaxslar bilan (talabalar ma'lum sohada faoliyat yuritayotgan biror tashkilot yoki jamoa a'zolari bilan muloqot qilishlari mumkin);
- 7) ayrim texnik vositalar (masalan, kompyuter, tele va audio apparatlar, video kameralar, slaydlar, kino-proektorlar va hokazolar)

Ta'lim berish modellari va ularning asosiy mohiyati

Ta'lim berish modellari	Sxema	O'quv jarayonining mohiyati
Ekstrafaol (tashqaridan) ta'lim		Meni kimdir (nima bilandir) o'qitadi
Faol (ichki) ta'lim		Talabani faolligi, mustaqilligi ta'minlangan bo'lsada, biroq o'qituvchining ishtiroki kuzatilmaydi
Introfaol (tashqariga) ta'lim		O'quvchi-talabaga ta'lim beradi (men kimgadir ta'lim bera olaman)
Interfaol (tashqaridan va tashqarida o'zaro o'rin almashgan holda) ta'lim		O'zaro hamkorlikda ta'lim olish

Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, talabalarning soni ta'lim yoki o'zaro munosabatning sifati hamda samaradorligini belgilamaydi. "O'zaro hamkorlik"ning muhim jihati uning yuzaga kelishi bo'lib, u asosida talabalar muayyan fan asoslarini mustaqil, bir-birlari bilan o'zaro faol munosabatda o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda ekstrafaol, faol va introfaol ta'lim jarayonlariga interfaol metodlarning tatbiq etilishi ularning samarali kechishini ta'minlash bilan birga, zamonaviy ta'lim uchun o'ta muhim sanalgan o'zaro hamkorlik, xususan, professional-kommunikativ malakalarni rivojlantirish uchun ma'lum sharoitlarni vujudga keltiradi. Interfaol shaklda tashkil etiluvchi ta'limning samarasi juda yuqoridir. R.A.Islamshin bunday ta'lim berish shaklining asosini tashkil qiladigan 4 ta tamoyilni o'z ta'riflarida belgilab bergan, bular, **birinchisi**, qulay sharoit (o'qituvchi va talaba uchun), **ikkinchisi**, hamkorlik (o'qituvchi bilan talaba va talaba bilan talaba orasidagi o'zaro hamkorlik), **uchinchisi**, barcha detallarni o'ylab chiqish (tashkil etilishi rejalashtirilgan ta'lim jarayoni bo'yicha) va **to'rtinchisi**, aniq loyihaga (shu ta'lim jarayonining)



asoslanishdan iborat [2]. Bu tamoyillarga qo‘shilgan holda yana bir nechta tamoyillarni hisobga olish bu jarayonning yanada samarador bo‘lishiga olib keladi. Bular,

- talabalarining o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlariga imkoniyat yaratish;
- motivatsiyalarini aniqlash va oshirish;
- o‘rnida rag‘batlantirish;
- albatta qayta aloqani yuzaga keltirish.

Bundan kelib chiqadiki, interfaol ta’lim – ta’lim olish jarayonining maxsus modelidir. Undan ko‘zda tutiladigan aniq maqsadlarni oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu maqsadlar ta’lim uchun qulay sharoitni yaratish orqali talabada o‘z muvaffaqiyatini, o‘z intellektual salohiyatini sezdirish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish natijasida muammolarning yechimini izlash yo‘llarini topish va ularni talabalar ongida mustaxkamlashga qaratiladi.

Boshqa so‘z bilan aytganda, interfaol ta’lim - avvalo, o‘zaro muloqot orqali tashkil etiladigan ta’lim, unda talabalar o‘zaro bir-birlari bilan va talabalar o‘qituvchi bilan o‘zaro faol muloqotni tashkil etib fikrlar jo‘shqinligi va to‘qnashuvlari natijasida axborotlarni o‘zlashtirish jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тоджибаева К. С. К. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27).

2. Исламшин Р.А. Научные основы функционирования модели непрерывного образования учителей в национально-региональных условиях Татарстана //Монография. – М.: Минобразование, 2005. –125 с.